AHOLI MIGRATSIYASI GENEZISI VA UNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Qobilova Rayhona
Andijon davlat chet tillar instituti talabasi
M.M.Axunov
Ilmiy rahbari: professor
https://doi.org/10.5281/zenodo.23698568

Anatatsiya: Mazkur maqolada aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik-metodologik asoslari yoritilgan. Shu bilan birga, “Aholi migratsiyasi” tushunchasiga berilgan ta’riflar ko’rib chiqildi, ulardan eng ko’p foydalanilgani V.A.Iontseb tomonidan nashr qilingan ilmiy tadqiqotlarda o’z aksini topgan. Birgina Rossiyadagi maxsus nashrlarni kontent-tahlili asosida mazkur atamaga 36 turli ta’riflarini sanagan. V.A.Iontsev kontent-tahlillarini umumiylashtirgan holda, mazkur atama ta’riflangan xorijiy va mahalliy adabiyotlarni turkumlab chiqadi.

Kalit so ‘zlar: migratsiya, genezis, jamiyat, aholi, ijtimoiy-demografik tarkib, yosh tuzilmasi.

THE GENESIS OF POPULATION MIGRATION AND ITS THEORETICAL-METHODOLOGICAL BASIS

Qobilova Rayhona
Student of Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: this article examines the genesis of population migration and its theoretical and methodological foundations. At the same time, the definitions given to the concept of "population migration" were considered, the most used of which were reflected in scientific researches published by V.A.Iontsev. Based on the content analysis of specialized publications in Russia alone, 36 different definitions of this term were found. V.A. Iontsev, summarizing the content analysis, categorizes foreign and domestic literature in which this term is defined.

Key words: Migration, genesis, society, population, socio-demographic composition, age structure.

ГЕНЕЗИС МИГРАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ И ЕЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Студентка Андижанского государственного института иностранных языков
Кабилова Райхона
Научный руководитель: профессор
М.М.Ахунов

Аннотация: В данной статье описывается генезис миграции населения и ее теоретико-методологические основы. При этом были рассмотрены определения понятия «миграция населения», наиболее употребительные из которых нашли отражение в научных исследованиях, опубликованных В.А. Ионцевым. На основе контент-анализа специальных изданий только в России он перечислил 36

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

различных определений этого термина. В. А. Ионцев, подводя итоги своего контент-анализа, классифицирует зарубежную и отечественную литературу, определяемую этим термином.

Ключевые слова: миграция, генезис, общество, население, социально-демографический состав, возрастная структура.

Kirish

Zamonaviy jamiyatlarda sodir bo’layotgan shiddatli o’zgarishlar aholining turli qatlamlari orasida aksariyat vaziyatlarda moddiy manfaatdorlik maqsadida bir hududdan ikkinchisiga ko’rib o’tish holatlarini kuchaytirmoqda. Bugungi kunda aholi ko’chishi ijtimoiy hodisa va jarayon sifatida ilm-fanda keng o’rganilmoqda. Ayniqsa, aholi populyatiyasi, ijtimoiy-demografik tarkibi, jinsiy-yosh tuzilmasidagi o’zgarishlar monitoringni, avlodlar davomiyligini ta’minlash muammolari migratsion jarayonlar bilan chanbarchas bog’likda o’rganiladi. Zero, XXI asrda migratsiya global ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik hamda demografik muvozanatni izdan chiqarishga qodir yirikroq omilga aylandi.

Aholi migratsiyasi (lot- migratio- ko’chish) kishilarning bir mintaqa (davlat, mamlakat) dan ikkinchisiga ko’chib o’tishi bo’lib, O.D.Vorobyovaning yozishicha bu

– «aholining yashash joyini doimiy yoki vaqtinchalik o’zgartirishi bo’lib, har qanday hududiy ko’chib o’tish ijobiy yoki salbiy omillar ta’sirida sodir bo’ladi»[1].

Migratsiya jarayonlari ilm-fanda aholi populyatsiyasi, uning miqdori, jinsiy-yosh tuzilmasi nuqtai nazaridan avlodlar davomiyligini ta’minlash va saqlab qolish maqsadida o’rganildi. Ushbu sohada sodir bo’layotgan jarayonlar har qanday mamlakatning demografik barqarorligiga to’g’ridan-to’g’ri ta’sir ko’rsatadi.

Iqtisodiy yondashuvlarga muvofiq migratsiya universal ta’riflanadi. Ya’ni, migratsiya – bu mamlakatning mehnatga layoqatli aholisi sonining muhim regulyatori sifatida olinadi. Ushbu jarayon mehnat bozorida sog’lom raqobatni rag’batlantiradi. Migratsiyaning aksariyat turlari iqtisodiy zarurat bilan bog’liq bo’lib, u yoki bu darajada mehnat bozori talablaridan kelib chiqib sodir bo’ladi.

Huquqshunoslik nuqtai-nazaridan esa migrantlarning huquqiy maqomining o’rnatilishi migrantlarning, migrantlarning huquq va manfaatlarining kafolatlanishi,migrantlar va ular bilan ishlovchi subyektlarning munosabatlar tizimi tartiblash dolazarb masalalar sanaladi.

Psixologiyada aholining muqim yashash joyidan boshqa hududga ko’chib o’tishi motivatsiyasi alohida o’rganiladi. Ushbu fanda migratsiya shaxsning qator ijtimoiy ehtiyojlarini qondiriish vositasi hamda kishining o’ziga bo’lgan ishonchini sinash usuli sifatida ta’riflanadi.

“ Aholi migratsiya” tushunchasiga berilgan ta’riflar ko’p sonli bo’lib, V.A.Iontsev birgina Rossiyadagi maxsus nashrlarni content-tahlili asosida ushbu atamaga 36 turli ta’riflarni umumlashtirgan holda, mazkur atama ta’riflangan xorijiy va mahalliy adabiyotlarni turkumlab chiqadi. Uning xulosalariga muvofiq migratsion jarayonlarni o’rganishda 17 turli ilmiy yondashuvlar farqlanadi. Ushbu yondashuvlar kamida 45 ta ilmiy yo’nalish, nazariy va kontseptsiya birlashtiradi. Xususan, iqtisodiy – 5 ta, sotiologik nazariyalar – 5 ta, sof migratsion – 4ta, demografik – 3 ta, tarixiy – 2 ta, tipologik, soyosiy va hakazo yondashuvlardan iborat.

“Aholi migratsiyasi” tushunchasi ilk bor ingliz olimi E.G. Ravenshteyn 1885 yilda chuqur ilmiy izlanislari asosida ta’riflaydi. Olim Buyuk Britaniya va Shimoliy Amerikadagi migratsion jarayonlarni tahlil qiladi. Ravenshteyn o’z tadqiqoti asosida migratsiyaning o’n bitta qonunyatiga aniqlik kiritadi. Ular ichida muhimlari quyidagilardaan iborat:

[1] Воробьёва О.Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной миграционной политики. Аналитический сборник. 2003. - №9 (202). – С. 32.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

- aksariyat migratsiya qisqa masofalarda sodir bo’ladi;
- hududiy markazlar qanchalik jozibador bo’lsa, ular shuncha migratsiyaga sabab bo’ladi;
- har bir migratsiyaga qarshi kontroqim ham bo’ladi;
- yirik shaharlarning o’sishga migratsion oqimning ta’siri tabiiy jarayonlarning nisbatan kata bo’ladi;
- migratsiya sanoatlashish va savdo-sotiq ko’lamining oshishi, ayniqsa, transportning rivojlanishi bilan kengayyib boradi;
- migratsiyaning iqtisodiy omillari belgilovchi sanaladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, migratsiyaning tarixi insoniyat paydi bo’lgan vaqtga borib taqaladi. Zero, dastlab Afrika qit’asida paydo bo’lgan insoniyat vaqt o’tishi aynan migratsiya bois, butun dunyoga tarqalib ketdi. XVI-XIX asrlarda Yevropa aholisining Amerika ko’chib o’tish sodir bo’ldi. Bu jarayon bir muncha qiyinroq Janubiy Afirika va Avstraliyaga ko’chdi. O’tgan asrning 50-yillarida esa vaziyat o’zgarib rivojlanayotgan davlatlar aholisining rivojlangan davlatlarga ommaviy ko’chib o’tish boshlandi.

A.V.Yurin Buyuk kashfiyotlar geografk kashfiyotlar davridan to bizning kunimizgacha sodir bo’lgan eng yirik migratsion jarayonlarni uch bosqichga bo’lib bo’lib o’raganadi. Unga muvofiq:

1-bosqich: Buyuk geografik kashfiyotlardan – XX arsning o’rtalarigacha davom etgan. Bu bosqichda igratsiyaning asosiy oqimi Yevropaga yo’naltirildi.

2-bosqich: 1950-yillar oxiri 1990-yillarga qadar davom etadi. Bunda asosiy oqim rivojlanayotgan davlatlardan rivojlangan davlatlar tomon yo’naltirilgan. Natijada, tartibsiz holgan kelgan bu migratsiyada xorijiy ishchi kuchining past daromatli va nufuzi past faoliyat sohalarga jalb qilishni joriy qilgan.

3-bosqich: 1990-yillarning oxiridan bizning kunimizga qadar dcom etib, unga muvofiq rivojlangan davlatlar tomonidan migratsiya ko’lami tartiblashi va cheklash siyosati yuritilmoqda. Tartibsiz kechuvchi va past daromadli ishlarga malakasiz ishchilarni jalb qilish tendensiyasi o’z o’rnini yuqori malakali mutaxassislarni nufuzli lavozimlarga jalb qilishga bo’shatib bera boshladi.

Xozirgi kunda ilm-fanda migratsion jarayonlar ko’lamini baholashda gravitaatsiyali(totishuv kuchi) modeli qo’llanilmoqda. Migrasiyaning gravitatsiyali modeli fizikada Nyutonning nazariyasiga qo’llanib, migratsiyaning ijtimoiy jarayonining boshlanishi. Uni o’sib, kengayib borishida ikki o’lcham turtki bo’ladi Bularning barchasini o’ziga jalb etayotgan, iqtisodiy nuqtayi nazardan jozibador bo’lgan “mintaqa” va “ahamiyatlilik” tushunchalaridir. Demak, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan migrant hayotida tub burilishi yashashga qodir ahamiyat kasb etishi lozim. Fikrimizcha, huddi shunday qonuniyat natijasida “qor uyumi” holati kuzatilib “jozibador mintaqa” ga ko’chib boruvchilar soni yo’l-yo’lakay oshib boraveradi.

Sotsiologik nuqtai nazardan migrantlarning yangicha ijtimoiy muhitiga moslashish muaammolari ilmiy tadqiqotlarning diiqqat markazida turadi. E’tiborlisi, sotsiologiya bu borada integrative fan rolini o’tab, Migratsiya sotsiologiyasini yaratilishiga turtki berdi.

Migratsiyaning alohida jihatlari strukturali funktsionalizm maktabi vazillari EDyurkgeym, T. Parsons, P. Mertonlar tomonidan o”rganildi. Sotsiologiyaning klassik vakillari sanalgan ushbu olimlar alohda migratsiyasi uzoq muddatli ijtimoiy transformatsiyalarni shakllantiruvchi jarayon ekanligida yakdil fikrga keldilar. Shu sababli migratsiya dolzarb ahamiyatli sotsial funksiyalarni bajarishi yoki jamiatda disfunktsiyalarga olib kelish ehtimoli baland ekanligi ko’satildi.

T.Parsons jamiyatning tizimli-funksional xususiyatlaridan kelib chiqib migratsiyaga turtki beruvchi sotsial omillar o’rganishda integrative yondashuv qo’lladi. Uningda, jamiyat hayoti ijtimoiy, shaxsiy va madaniy tizimlar kesishmasida kechadi. Aholi migratsiyasi ushbu uch o’lchanli ijtimoiy makonnda uzoq muddatli sotsial transformatsiyalarni shakllantiradi. E.Dyurkgeym nazaricha, bunday sotsial transformatsiyalar bir tomondan jamiyatda ijtimoiy ahamiyti funksiyalarni bajarsa, ikkinchi tomondn ijtimoiy muvozanatlar izdan chiqaruvchi disfunksional holatlarni shakllantiradi. Huddi shunday

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

disfunksional vaziyatlar R.Mertonning fikricha, migratsiyaning ochiq yoki latent sotsial funksiyalari bois shakllanishi mumkin

Sotsialogiyaning Chikago maktabida shallangan bixeborial metodologiya doirasida aholi ko’chisi jarayonlari dinamik hodisa sifatida tlqin qilinadi. Xususan, migratsiyaning kechish tenndensiyalari va ushbu hodisaning jamiyatga intitutsionallashuvi shartlari U.Tomas va F.Znanetskiy ishlarida o’z aksini topdi. Tanqlik sotsiologlar sanalgan ushbu olimlarning “Polyal dehqoni Yevropa va Amerikada” asari mohiyatan migratsiya borasidagi ilk empirik sotsiologik ishlardan biri bo’ldi. Ushbu sotsiologik tadqiqotda aholining ijtimoiy makonda joy almashtirish jarayoni bir tomondan jamiyatda sodir bo’layotgan sotsial o’zgarishlarning oqibati sifatida o’rganilsa, ikkinchi tomondan, migratsiyaga xos ijtimoiy oqibatlar diqqat markazida bo’ldi. M.S.Blinova ko’satganidek:” U.Tomas va F.Znanetskiylarning sifatli tadqiqot metodlarii asosida migratsiyaning ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilgan ilk sotsiologlardan bo’ldi”. O’z davrida ushbu asar yordamida yangi ko’chib kelgan hududda turli sotsial harakterga ega kishilar orasida o’z o’rniga ega bo’lish va ijtimoiy tizimiga moslashib ketishidagi ichki mexanizmlarni modellashtirish xususiyatlariga aniqlik kiritildi.

Chikago maktabining taniqli vakillaridan biri R.Park migratsiyani sotsial mobbillikga moyilligining oqibati sifatida o’rgandi. R.Park, E.Berjess va R.Makkenzilarning “Shahar” asarida migratsiya oilalari, individ va sotsial institutlarning ijtimoiy makondagi mobilligining indikatori va uni jonlantiruvchi vosita sifatida namayon bo’ldi. Mualliflarning aniqlashicha, sanoatlashuv va urbanizatsiya ikki qudratli to’lqin sifatida sotsial mobilikka turtki berdi va bu o’z o’rnida migratsiyaning intensivligini oshririb yubordi. Natijada, ikki madaniy dunyo hudud o’rtasida marginal holatlarni egallagan migrantlar qatlami shakllandi.

XX asrning 20-90 yillari sobiq ittifoq hamda g’arb ilm-fanida migratsiyaning gender xususiyatlarini ilmiy o’rganilishi. Migratisiya xususiyatlari borasida bu davrda amalga oshirilgan dastlabki ilmiy tadqiqotlar G.Strumilina va G.F.Chirkinlar faoliyati bilan bog’liq bo’lsa, 1960 yillarda V.I.Perevedenstev, I.S.Matlin V.V.Onikienko, V.APopovkin, A.U.Xomra larning ishlari diqqatga sazovor. Qayd etilgan mualliflar migratsion jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, moliyaviy-bandik muammolarini o’rgandi. Xususan, A.U.Xomra sobiq ittifoqi sharoitidagi mehnat migratsiyasining nazariy va metodik masalalarini o’rgandi. Bunda sotsiologik va iqtisodiy yondashuvlarida shakllangan ilmiy an’analarga tayanib, aholi migratsiyasini tendensiyalarini prognozlash ko’rsatkichlari, metodlari takomillashtirildi.

Bu davrda asosiy e’tibor sobiq ittifoq miqyosidagi ichki ko’chishlarga qaratildi. Mafkuraviy tus olgan ushbu ilmiy tadqiqotlarda mehnat migratsiyasi sobiq ittifoqning o’zlashtirilmagan hududlarini obod qilish masalariga qaratiladi. Bunda ittifoq tarkibidagi respublikalar aholisi baynalmilallik g’oyalari bilan sug’orilib, Sibir, Uzoq Sharqqa, O’zbekistonda esa Katta Farg’ona kanalini qazish, Mirzacho’l hududlarini o’zlashtirish maqsadida ommaviy tus olgan ichki mehnat migratsiyalari shakllantirildi.

I.B.Britvina majburiy migratsion oqimlar ishtirokchilarining yangi hududga moslashish jarayonining gender muammolarii tadqiq etish jarayonida XX asrni “migratsiyalar egasi” ekanligi haqida xulosalarga keldi. XXI asrga kelib esa migratsiya dunyo miqyosidagi ijtimoiy o’zgarishlarning bosh omiliga aylandi. Migrantlarning aksariyatini rivojlanayotgan davlatlar aholisi tashkil qilib boshladi. Xalqaro tashkilotlarning baholashlaricha, ushbu davrda dunyo miqyosida 210 mln migratlarning yarmini, ya’ni 150 mlnni xotin-qizlar tashkil etdi.

Muxokamalar/Tavsiyalar: Aynan shu mazmunda o’z ilmiy tadqiqtlarini olib brogan N.LMikidenko, S.P.Storojevalar O’rta Osiyo mintaqasidan mehnat migratsiyasiga tortilgan xotin-qizlarning adaptatsiyasi masalalarini o’rganar ekan “Xalqaro mehnat migratsiyasidagi asosiy tendensiyalardan biri bu yirik megapolislarda migratsion oqimlarning feminlashuvi” ekanligini aniqladi. A.A.Ilimbetova migratsiya global darajada feminlashgan jarayonga aylanganligini ta’kidlaydi. Bunda

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

asosiy omil sifatida jahon iqtisodiyotidagi tuzilmali o’zgarishlarni ko’rsatadi. Xususan, xizmat ko’rsatish, tekstil sanoati, hordiq va ko’ngil ochar sohalarning rivojlanishi aynan ayollar mehnatiga bo’lgan talabni oshirib yubordi.

Bu davrda migratsion jarayonlarga tortilgan va norasiy mehnat sohisida band xotin-qizlarga nisbatan tahqirlash, zo’ravonlik, sun’iy sotsional baryerlar va ayollarning yangi muhitga moslashish jarayonidagi ijtimoiy muammolar ilmiy tadqiqottlarnig dolzarb mavzulariga aylandi. Ayni davrda psixologik tadqiqotlar jadallashdi va xotin-qizlarning muhim yashab turgan joyini o’zgartirish motivatsiyalarini alohida o’rganildi. Migratsiya shaxsning ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondirish vositasi hamda kishining o’ziga bo’lgan ishonchini sinash usuli sifatida ta’ridflanadi.

Xulosa

Sotsiologiyada migratsiya ijtimoiy fenomen va ijtimoiy jarayon sifatida alohida o’rganildi. Ushbu jarayonlarning shakllanish xususiyatlari va rivojlanish davomiyligi dinamik ko’rsatkichlarda tahlil qilindi. Sotsiologiya tadqiqotlarda globallashuv jarayoni umumiy fonida kechayotdan yirik ko’lamli ushbu jarayon ulkan oqim sifatida aosisy trendlarda ko’zga tashlanuvchi davlatlar ikki turga ajratiladi. Bular, donor davlatlar, ya’ni migratlarni yetishtirib beruvchi aksariyat kambag’al davlat bo’lsa, ikkinchisi, qabul qiluvchi “iqtisodiy jozibador” davlatlar bo’lib ular dunyoning rivojlangan davlatlari zimmasiga to’g’ri keladi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati

1. Воробьёва О.Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной миграционной политики. Аналитический сборник. 2003. - №9 (202). – С. 32.
2. Миграция населения. Выпуск 1. Теория и практика исследования. Приложение к журналу Миргация в Россиии. – М. 2001. – С. 18.
3. Трудовая миграция. Ilo.org.
4. Парсонс Т. Система современных обществ. /Пер, с англ. Л.А. Седова и А.Д. Ковалева. Под ред. М.С. Ковалевой. – Москва: Аспект Пресс, 1998. – С. 21.
5. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии / Пер. с фр. и послесловие А.Б. Гофмана. – М.: Наука, 1990. - С. 58.
6. Мертон Р. Социальная теория и социальная структура. – Москва: Хранитель, 2006.
7. Томас У., Знанецкий Ф. Польский крестьянин в Европе и Америке. // Thomas W., Znaniecki F. The Polish peasant in Europe and America. N.Y., 1958.
8. Блинова М.С. Миграция населения: подход социологов Чикагской школы. // Вестник Московского университета. Серия 18. Социология и политология. 2011. №4. – 173 б.
9. Парк Р.Э. Разум бродяги: размышления о связи ментального с пространственным передвижением. // Социальные и гуманитарные науки. Сер. 11. Социология. 1997. № 4. - С. 158-162.
10. Park R.E., Burgess E.W., McKenzie R.D. The city: suggestions for the investigation of human nature in the urban environment. Chicago, 1925.
11. Струмилина С.Г. Перспективы развертывания народного хозяйства СССР на 1926-27/1930-31 гг. – Москва., 1927.; Чиркин Г.Ф. Очерк колонизации Сибири второй половины XIX в. и начала XX века. В сб. Очерк по истории колонизации Севера и Сибири. Пб. 1922. Вып 2.
12. Переведенцев В.И. Проблемы приживаемости новоселов и методы ее изучения // Изв. СО АН СССР. 1965. №5, вып.2. Матлин И.С. Моделирование размещения населения. – Москва., 1975.; Оникиенко В.В., Поповкин В.А. Комплексное исследование миграционных процессов. –

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Москва., 1973.; Хомра А.У. Миграция населения: Вопросы теории, методики исследования. Монография. – Киев.: Науково думка, 1979.

13. Бритвина И.Б. Гендерная детерминация адаптации вынужденных мигрантов: социологический анализ. Автореф. …дисс.докт.соц.наук. – Екатеринбург, 2006. – С. 3.
14. Франк А.К., Спехар А. Женская трудовая миграция в контексте глобализации. - Брюссель: Европейская сеть. Женщины в развитии, 2010. – С. 2.
15. Микиденко Н. Л., Сторожева С. П. Женская трудовая миграция: информационные аспекты адаптации. // Вестник Кемеровского государственного университета. Серия: Политические, социологические и экономические науки. 2016. № 2. – С. 35 – 42.
16. Илимбетова А.А. Глобальный процесс феминизации миграции. // Век глобализации. Журнал. 2013. №1. – С.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.